

**SOLIQ QARZDORLIGINI KAMAYTIRISH ЮЗАСИДАН  
РИБОЖЛАНГАН ДАВЛАТЛАРНИНГ ТАЖРИБАЛАРИ ВА УЛАРДАН  
FOYDALANISH YO‘NALISHLARI.**

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

***G.A.Mirzaalieva***

**Annotatsiya:** Respublikamizning soliq qonunchiligi bosqichlarini takomillashtirish bosqichlari, soliq qarzdorligini undirishga oid huquqiy acoclari bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** *soliq, budget siyosati, soliq ma‘murchiligi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, davlat organlari, soliq qarzi, bankrotlik, soxta bankrotlik.*

Mamlakatimizda iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan davlatlarda ham soliq qarzini majburiy undirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, xorijiy davlatlar tajribacini o‘rganib amaliyotga joriy etishda, u davlatning milliy, siyosiy, iqtisodiy qolaversa, tarixiy cohalaridagi ayrim qirralarga ahamiyat berib, ushbu tajriba bizga qay darajada to‘g‘ri kelishiga ijodiy yondashish kerak bo‘ladi. Hozirgi zamonaviy soliq ma‘murchiligi nafaqat soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmlarini takomillashtirishi zarur, balki, mazkur soliq qarzdorligini ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda zamonaviy axborot telekommunikasiya texnologiyalari orqali yuzaga kelishining oldini olish, soliq to‘lovchilar tomonidan ixtiyoriy to‘lash bo‘yicha huquqiy savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot va tushuntirish ishlariga e‘tiborini kuchaytirish samaraliroq hisoblanadi. Demak, soliqlarni majburiy undirish jarayoniga sarflashdan ko‘ra, ularni paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaqlik bo‘yicha targ‘ibot tadbirlariga safarbar etish afzaldir. Chunki, soliq

qarzdorligi ham davlat uchun ham soliq to'lovchi uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Xorijiy davlatlarning soliq qonunchiligida soliq qarzini undirishning 2-ta bosqichi mavjud. Bular: birinchici soliq organi tomonidan soliq qarzini majburiy undiruvga qaratishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda ikkinchici bevosita undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratishdir. Birinchi bosqich soliq organi, ya'ni davlat o'zining kreditoridan qarz majburiyati (soliq majburiyati)ni bajarishini talab qilishini o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchi bosqich undiruvni uning pul mablag'lariga, mol-mulkiga, debitorlariga qaratishni belgilab beradi.

Rossiya Federatsiyasida soliq to'lovchi (soliq agenti) – yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki hisobidan soliqni undirish soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) qarori bilan, uni qog'oz yoki elektron shaklda ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida sud ijrochisiga yuborish orqali amalga oshiriladi.

Qozog'iston tajribasida soliq organi qarzdorlikni tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga muvofiq yuqori yoki o'rtacha xavf darajasi sifatida tasniflangan soliq to'lovchi yuridik shaxs (soliq agenti), uning tarkibiy tuzilmasi, doimiy muassasa orqali Qozog'iston Respublikasida ish olib boruvchi norezident va xususiy amaliyot bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisob raqamlarida va debitori yoxud uning bank hisob raqamlarida pul mablag'lari mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq to'lovchining roziligisiz, uning tassarufida bo'lgan mol-mulkidan undirish to'g'risida soliq organi qarori asosida vakolatli yuridik shaxslar tomonidan savdolar o'tkazish yo'li bilan realizatsiya qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Beloruciya va Qirg'iziston Respublikalarida esa soliq qarzini undirishda dastlabki, ya'ni ogohlantirish va pul mablag'lari hamda debitor qarzlari hisobidan undirib bo'lmagandan ko'ng, soliq qonunchiligiga asosan undiruv qarzdorning mol-

mulkiga sud tartibida qaratiladi. Biroq, hujjatlar sudga berilishidan oldin soliq organining qaroriga binoan, qarzdorning mol-mulk va aktivlari xatlanib band solib qo'yiladi.

Armaniston Respublikasida esa yuridik shaxs soliq va majburiy ajratmalar bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagandan so'ng 10 kun muddat o'tgach, soliq organi uning mol-mulkidan undirish bo'yicha sudga da'vo kiritadi. Agar 183 kun davomida, ya'ni 6 oy davomida har qanday yuridik shaxs o'z majburiyatini to'liq bajarmasa, soliq organi sudga yuridik shaxsni to'lov qobiliyatiga ega emas "bankrot"ligi yuzacidan da'vo kiritadi.

Ta'kidlash joizki, Yaponiyada soliq to'lovchilarga huquqiy yordam ko'rsatish, maslahatlar va axborot berish, xabardor qilishga yo'naltirilgan butun bir davlat dasturi mavjud bo'lib, soliqlarni ixtiyoriy to'lash madaniyatini oshirishda munosib hissa qo'shib kelmoqda<sup>1</sup>.

Soliq to'lovchi qonun bilan belgilangan muddatdan kechikib soliq to'lovini amalga oshirganda, quyidagi moliyaviy choralar ko'riladi dastlabki kechiktirilgan 2-oy uchun 7,3 foiz yilik miqdorda (foiz stavkalari bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqib har yili o'zgartiriladi), 2 oydan oshgan qismiga 14,6 foiz miqdorida yillik penya hisoblanishi belgilangan<sup>2</sup>.

Shu bilan birga, soliq organida 24 soat uzluksiz ishlaydigan "call-markaz" faoliyati (goryachaya liniya) tashkil etilgan bo'lib, ular soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligi bo'yicha to'xtovsiz ravishda izohlar, tushunchalar berib boradi, turli xil seminarlar uyushtiradi, gazeta va jurnallar, broshyuralar tarqatadi. Bu esa soliq qonunchiligida "shaffoflik"ni yuzaga keltiradi. Soliq qarzi paydo bo'lganda esa, qarzdorga zudlik bilan talabnoma yuboriladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, boshqa xorijiy mamlakatlar tajribasida o'rganilganda, yuridik shaxslar soliq qarzini kamaytirish uchun birinchi galda ularni

---

<sup>1</sup> Matyushin A. V. Zakonodatelstvo zarubejnyx stran o covershenctvovanii prosedury vzyckaniya nalogovoy zadoljennosti. Nalogovye i tamojennnye problemy. Biznes v zakone. M.: 2009 №1'Ctr. 116-121.

<sup>2</sup> An Out Line of Japanese TAX ADMINISTRATION 2008.  
[www.pedaqqqlar.uz](http://www.pedaqqqlar.uz)

soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish mexanizmini joriy etilganligi undirishdagi muammolarni soliq qarzdorliklarini hosil bo'lishidan oldin bartaraf etish amaliyoti mavjudligi kuzatildi.

**Xulosa va takliflar:**

Undirish imkoniyati mavjud bo'lmagan to'lovga qobiliyatsiz deb e'tirof etilmagan – faoliyat yuritmayotgan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzini besh yildan keyin soliq organlari qarorlari asosida hisobdan chiqarish, bunda ushbu davrda qarzdorning mol-mulki va boshqa daromadlari aniqlanganda yoki vujudga kelganda soliq organlariga ijro hujjatini qayta tiklash vakolatini berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Qozog'iston Respublikasi Soliq kodeksining 117 va 124-moddalari.  
www.norma.uz - Normativ-huquqiy hujjatlar elektron bazasi.

Rossiya Federasiyasining Soliq kodeksi. IV bobi.  
<http://base.garant.ru/10900200/>

Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovyx lgot i preferensiy v podderjke opredelennyx sektorov s selyu dalneyshego povыsheniya investitsionnoy privlekatelnosti v Uzbekistane. Ekonomika i obrazovanie, (6), 82–86. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovyx lgot dlya podderjki predprinimateley. Ekonomika i innovatsionnyye texnologii, (4), 355–362. izvlecheno ot [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)